IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: SM18463013

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 7-uy. Tel.: (998) 55-520-08-08, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: gov.uz/edu

2025-yil 22-dekabr 02/12-4/1-10511-son

SHOSHILINCH

Oliy ta’lim muassasalari rektorlari va filiallar direktorlariga

Nusxa: **O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi**

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining hamda O‘zbekistonning Seuldagi elchixonasining ma’lumotiga muvofiq, 2026-o‘quv yilida Koreya Respublikasining Dongduk ayollar universitetida “Ipak yo‘li Koreyashunosligi” bakalavriat yo‘nalishi hamda “K-Ipak yo‘li turkiy tadqiqotlari” magistratura mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olish uchun e’lon qilingan stipendiya tanlovi to‘g‘risida ma’lumot yuborilmoqda.

Koreya tomonining ma’lumotiga ko‘ra, nomzodlar respublika OTMlari ilmiy xodimlari, doktorantlari, magistrantlari, talabalari qatoridan bo‘lishlari va muayyan talablarga javob berishlari lozim, ular hujjatlar natijalari asosida tanlab olinadilar.

Ushbu tanlovda **(bakalavriat, magistratura)** ishtirok etish istagida bo‘lgan nomzodlar arizalar va barcha zarur hujjatlarni ilova qilgan holda, **2026-yil 12-yanvarga qadar** www.uwayapply.com havolasi orqali **on-line tarzda** taqdim etishlari kerak. Hujjatlarga ularning ingliz yoki koreys tillariga notarial tasdiqlangan tarjimasi ilova qilinishi kerak.

Bakalavriat yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishga qabul qilingan stipendiya sovrindorlariga har bir semestr uchun 50% o‘qish to‘lovidan chegirma va boshqa imtiyozlar taqdim etiladi.

Stipendiya dasturi to‘g‘risidagi batafsil ma’lumot uchun intl@dongduk.ac.kr elektron pochta manziliga murojaat qilish mumkin.

Ma’lumot tariqasida yuborilmoqda.

Ilova: 6 b.

Vazirning birinchi o‘rinbosari **S. Radjabov**

Ijrochi: G. Umarova
Telefon: (55) 520-08-08 (206)